

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-aprel holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

367,9
ming.

2019-yilning yanvar-mart oylarida Respublikada 31,6 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,1 mingtaga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

350,7
ming.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 54,3 mingta (18,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 350,7 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

31,6
ming.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

367,9 mingtani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda

367896

311690

01.04.2018 yil

01.04.2019 yil




18,0 %

O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-aprel holatiga 367,9 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,9 % savdo, 17,7 % sanoat, 9,0 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (88088 ta) savdo, (65214 ta) sanoat, (33041 ta) qurilish, (27640 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (23089 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (14638 ta) tashish va saqlash, (7677 ta) axborot va aloqa, (7202 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (101307 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 350,7 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 54,3 mingta (18,3 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi




Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar




Tashish va
saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash
va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish



Boshqa
turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Toshkent shahri (74660 ta), Toshkent (32534 ta), Farg'ona (31898 ta), Andijon (29253 ta) va Samarqand (27889 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sirdaryo (11033 ta), Navoiy (12023 ta) hamda Jizzax (15498 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 31593 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 16098 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati,
birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (13619 ta), sanoat (6455 ta), qurilish (2799 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1860 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (301 ta), axborot va aloqa (370 ta) hamda tashish va saqlash (879 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



13619

Tashish va saqlash



879

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2207

Qurilish



2799

Sanoat



6455

Axborot va aloqa



370

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



301

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



1860


Boshqa turlar



3103


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (6495 ta), Samarqand (3077 ta), Toshkent (2942 ta) va Farg'ona (2925 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (816 ta), Navoiy (944 ta) hamda Jizzax (1365 ta) viloyatlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



Korxonalar sonini o'sishi, birlikda


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-aprel holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 291,5 mingtani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



8280 ta

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,4 % o'sgan.

Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 8280 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2465 taga yoki 42,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Rossiya	1532
Turkiya	982
Xitoy	1222
Qozog'iston	594
Koreya	689
Boshqa davlatlar	3261



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 4302 tasi qo'shma, 3978 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Xorijiy korxonalar




Jami




Qo'shma korxonalar




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahrida 5082 ta (jamidagi ulushi 61,4 %), Toshkent viloyatida 913 ta (11,0 %) va Samarqand viloyatida 430 tani (5,2 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xorazm 81 ta (1,0 %), Qashqadaryo 114 ta (1,4 %), Sirdaryo 117 ta (1,4 %), Navoiy viloyatida 133 ta (1,6 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi 128 tani (1,5 %) tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 850 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 463 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 131 ta, Turkiya Respublikasi – 117 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 119 ta, Qozog'iston Respublikasi – 90 ta va Koreya Respublikasi – 65 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 242 ta savdo, 255 ta sanoat, 99 ta qurilish, 71 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 85 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)



2019-yil 1-aprel holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 289,7 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 21,4 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-mart oylarida 30,4 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 17,2 mingtaga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi



•Toshkent shahri
22,6 %



•Buxoro viloyati
5,8 %



•Toshkent viloyati
9,3 %



•Xorazm viloyati
4,6 %



•Farg'ona viloyati
9,0 %



•Qoraqalpog'iston
Respublikasi
4,5 %



•Andijon viloyati
8,4 %



•Surxondaryo viloyati
4,5 %



•Samarqand viloyati
7,7 %



•Jizzax viloyati
4,3 %



•Namangan viloyati
6,5 %



•Navoiy viloyati
3,4 %




Qashqadaryo viloyati
6,2 %



•Sirdaryo viloyati
3,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 289,7 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 83,1 mingta (28,7 %) – savdo, 61,8 mingta (21,4 %) - sanoat, 31,4 mingta (10,8 %) - qurilish, 25,4 mingta (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 21,6 mingta (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 13,9 mingta (4,8 %) - tashish va saqlash, 7,0 mingta (2,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 5,6 mingta (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 39,9 mingtasi (13,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

44,7 %



Sanoat

21,2 %



Qurilish

9,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,2 %



Tashish va saqlash

2,9 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

6,0 %



Axborot va aloqa

1,2 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,0 %




Boshqa turlar

6,7 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 13304 ta, sanoat 6444 ta, qurilish 2789 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1835 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 297 ta, axborot va aloqa 366 ta hamda tashish va saqlashda 879 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Toshkent shahri (6304 ta), Samarqand (2940 ta), Toshkent (2856 ta) va Farg'ona (2851 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (789 ta), Navoiy (889 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (1280 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-aprel holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-aprel holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda ularning 36,6 % yoki 6819 tasi sanoat, 21,9 % yoki 4081 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,4 % yoki 3615 tasi savdo, 10,1 % yoki 1888 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 217 tasi qurilish, 1,1 % yoki 196 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 188 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 168 tasi axborot va aloqa hamda 7,8 % yoki 1462 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish va
tizimli xizmat ko'rsatish
boshqarmasi.**

Tel.:71-230-80-90(91)